

O'zbekiston tosh davriga oid yangilik

2020-yilning oktyabr oyida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi xodimlari A.Muhammadiyev, R.Z.Ibragimov, G'.A.Muxtarov, Sh.Ro'zmatov boshchiligidagi Angren shahar muzeyi xodimlari bilan birga Chotqol va Qurama tog' tizmalari yonbag'irlarida ilmiy izlanishlar olib borildi.

Tadqiqotlar natijasida bir qator yangi arxeologik yodgorliklar aniqlandi. Jumladan, Angren vohasi Yangiobodsoy va Qorabog'soy irmoqlari yuqori oqimi hududlarida 2 ta tosh davri ustaxonasi, 2 ta manzilgoh, qabr-qo'rg'onlar kompleksi va qoyatosh suratlari aniqlandi.

Tosh davri ustaxonalaridan chiqqan topilmalar ushbu yodgorliklarning davriy chegarasi o'rta paleolitdan boshlanib to so'nggi paleolitning oxirlarigacha davom etganini ko'rsatdi.



Aniqlangan manzilgohlardan biri ustaxona yaqinida bo'lib, so'nggi paleolit davriga tegishlidir. Ikkinchisi manzilgoh tosh davrining so'nggi paleolit davri oxirida bo'lgan ko'rindi. Topilgan yodgorliklarning davriy sanasi yer yuzasidagi topilmalar asosida chiqarilgan bo'lib, keyingi izlanishlar masalaga aniqlik kiritishi mumkin.

Topilmalar ichida O'zbekiston paleolitida oldin uchramagan noyoblari ham bor. Xususan, toshdan yasalgan tumor birgina O'zbekiston uchun emas, balki jahon paleolitshunosligida ham noyob hisoblanadi.

Aniqlangan qoyatosh suratlari va qabr-qo'rg'onlar ushbu hududlarni turli tarixiy davrlarda insonlar tomonidan faol o'zlashtirilganini ko'rsatadi.